



OZIQ OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA KO'K NO'XAT O'SIMLIGINING AHAMIYATI

Abdurashidova Manzura Asadulla qizi

SamATI talabasi

Bobokulov Zarif Rayimkulovich

SamATI dotsenti, q.f.f.d.

Annotasiya. Dukkakli don ekinlaridan biri bo'lgan ko'k no'xat oqsilga boy qimmatli oziq-ovqat mahsulotidir. Odatda oziq-ovqatga ishlatilish maqsadida ko'k rangdagi urug'lari yetishtiriladi. Ko'k holida olgandan so'ng qolgan poyalaridan pichan va silos uchun foydalaniladi.

Ushbu maqolada dukkakli don ekinlaridan biri bo'lgan ko'k no'xat ekinining halq xo'jaligidagi ahamiyati va foydali jihatlari keltirilgan va xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar. Dukkakli don ekinlari, ko'k no'xat, ozuqa, ozuqa birligi, oqsil, tunganak bakteriya, hosildorlik.

O'zbekiston Respublikasini Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi Farmonida 30-maqсад: Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish belgilangan. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, eksportbop mahsulotlar yetishtirishni ko'paytirib, eksport salohiyatini yanada oshirish, tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish hamda aholi tomonidan tomorqalardan samarali foydalanishi uchun sharoitlar yaratish va boshqa vazifalar belgilangan¹.

Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, respublikamizning aholisini qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan yetarlicha ta'minlash borasida agrar sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarning samarali tizimini yaratishni taqozo etadi.

Dukkakli don ekinlariga ko'k no'xat, no'xat, soya, mosh, loviya, yasmiq, burchoq, xashaki dukkak, vigna, lyupin, vika kiradi. Ularning hammasi dukkaklilar oilasiga mansub. Dukkakli don ekinlari don ekinlariga nisbatan

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сонли фармони.



oqsilga boy, hazmlanishi oson, sifatli, arzon don hosili beradi va tuganak bakte-riyalar yordamida havodagi azotni o‘zlashtirish xususiyatiga ega.

Bu ekinlar foydalanishiga ko‘ra, oziq-ovqat (no‘xat, ko‘k no‘xat, mosh, loviya, soya), yem-xashak (vika, xashaki no‘xat, lyupin, xashaki dukkak va boshqalar), universal (yasmiq, burchoq), ko‘k o‘g‘it (xashaki no‘xat, alkoloidsiz lyupin) uchun ekiladigan guruhlarga bo‘linadi.

Ularning donida oqsilning miqdori 22-34 % bo‘ladi. Sifatli tayyorlangan dukkakli don ekinlarining somonida 8-14 % oqsil bor, don ekinlarinikida esa 3-4 %.

Ma’lumki, oqsil oziq-ovqat sifatini belgilovchi, organizm uchun zarur bo‘lgan organik birikmalardan hisoblanadi. O‘z navbatida oqsil tarkibi almashinadigan va almashinmaydigan aminokislotalrning asosiy manbalari dukkakli o‘simpliklar hisoblanadi.

Ko‘k no‘xat oziq - ovqatda va mollarga ozuqa tayyorlashda qo‘llaniladi. Urug‘ida 20-26 % oqsil bo‘ladi. Urug‘i to‘yimli ozuqa 1 oziq birligiga 120-185 gr oqsil to‘g‘ri keladi. Sabzavot konserva ishlab chiqarishda (ko‘k no‘xat) qo‘llaniladi. Silosning sifatini oshirish uchun qo‘shiladi. Ko‘k no‘xat 70-100 kg azot to‘playdi, tuproqda organik modda ham qoldiradi.

Ko‘k no‘xat oziq-ovqat hamda yem-xashak maqsadida ko‘p ekiladigan dukkakli don ekinlaridan biri. Urug‘ida 20—26 % oqsil mavjud. Urug‘i yaxshi pishadi va hazmlanadi. Ko‘k no‘xat omixta yem ishlab chiqarishda asosiy oqsil manbayi. Uning 1 oziq birligida 120—185 g hazmlanadigan oqsil saqlanadi. Sabzavot navlari konserva sanoatida foydalaniladi. Ko‘k no‘xat almashlab ekishlarda toza va boshqa ekinlarga qo‘shib ekilganda gektaridan olinadigan oqsil hamda karotin miqdori ko‘p bo‘ladi. Mavsum davomida bir gektar ekinzorda 80—120 kg azot to‘playdi. Vatani — Old Osiyo, Turkmanistonning tog‘li mintaqasi, Iroq, Kavkazorti. Ikkinchı vatani — O‘rta yer dengizining sharqiy sohillari. Ko‘k no‘xat Yevropa, Osiyo, Amerikada ko‘p ekiladi. Juda plastik ekin va shuning uchun keng tarqalgan. Hozirda Jahon dehqonchiligidagi 15 mln gektar maydon atrofida ekiladi. Yangi navlari gektaridan 4—5 tonna don hosili beradi.

Shu bilan birgalikda dukkakli don ekinlari ildizida yashovchi tuganak bakteriyalar biologik azot to‘playdi va ular tuproqda organik moddalar miqdorini, tuproqni suv-fizik xossalalarini yaxshilaydi, tuproq unumdoorligini oshiradi. Dukkakli ekinlar to‘plagan azot – biologik azot bo‘lib, ular o‘simplik mahsulotlarida nitratlarni to‘planishini, tuproqda organik moddalarni tez parchalaydigan zararli mikroflorani ko‘payishini oldini olishga hamda toza mahsulot yetishtirishga imkon beradi.



Ko'k no'xat o'simligi boshqa dukkakli ekinlar singari havo azotini o'zlashtirib, oqsilli birikmalar sintez qilish xususiyatiga ega. Havodagi azotni o'zlashtirish no'xat ildiz sistemasidagi tiganaklarda joylashgan tiganak bakteriyalar ishtirokida amalga oshiriladi.

Ko'k no'xat ildizida yashovchi tiganak bakteriyalar biologik azot to'playdi va ular tuproqda organik moddalar miqdorini, tuproqni suv-fizik xossalarni yaxshilaydi, tuproq unumdarligini oshiradi. Ko'k no'xat ildizida to'plangan azot – biologik azot bo'lib, ular o'simlik mahsulotlarida nitratlarni to'planishini, tuproqda organik moddalarni tez parchalaydigan zararli mikroflorani ko'payishini oldini olishga hamda toza mahsulot yetishtirishga imkon beradi

Xulosa qilib aytganda ko'k no'xatning tarkibidagi oqsil, boshqa ekinlardan olinadigan oqsil miqdoriga nisbatan yuqori bo'lishi hamda inson organizmi uchun zarur bo'lgan oqsil muammosini hal etishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mavlonov, B., Xamzaev, A., & Bobokulov, Z. (2018). Dukkakli don ekinlarining tuproq unumdarligini oshirishdagi ahamiyati. *O 'zbekiston qishloq xo 'jaligi jurnali*,(8), 36.
2. Amanturdiev, I., Yazdonov, U., Lukova, I., Dzhurakulov, H., & Shamsiev, A. (2023). The effect of fertilizer rate on the growth, development and yield of sweet pepper in protected areas. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 462, p. 02012). EDP Sciences.
3. Bobomuradov, Z. S., & Bobokulov, Z. R. (2018). No_ xat ekinining o_ ziga xos xususiyatlari (Fermerlarga kichik maslaxat). *EVELOPMENT ISSUES OF INNOVATIVE ECONOMY IN THE AGRICULTURAL SECTOR*, 989, 992.
4. Tukhtamishova, J., & Bobokulov, Z. (2022). Peas-Protein Source. *INTERNATIONAL JOURNAL OF BIOLOGICAL ENGINEERING AND AGRICULTURE*, 1(6), 62-63.
5. Mavlonov, B., Xamzaev, A., & Bobokulov, Z. (2018). Dukkakli don ekinlarining tuproq unumdarligini oshirishdagi ahamiyati. *O 'zbekiston qishloq xo 'jaligi jurnali*,(8), 36.
6. Bobokulov, Z., & Tukhtamishova, J. (2023). CHICKPEA IS THE MEDICINE OF HEALTH. *Journal of Agriculture & Horticulture*, 3(4), 22-23.
7. Bobokulov, Z. R., & Xolmurodova, M. A. (2022). MOSHNING DURDONA NAVI ILDIZIDA TUGANAKLARNING RIVOJLANISHIGA EKISH MUDDATI VA USULINING TA'SIRI. *Academic research in educational sciences*, (Conference), 326-330.
8. Eshniyozov, O. E., Bobomirzayev, P. X., Bobokulov, Z. R., & Ochilov, S. B. (2021). Qishloq xo'jaligi ishlarini tashkil etish texnologiyasi» fanidan amaliy mash-g'ulotlar va laboratoriya ishlari. *O'quv qo'llanma.-Samarqand:*, SamDU, 252.



9. Ochilboyev, D., & Bobokulov, Z. (2023). GREEN PEAS-USEFUL CROP. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(5).
10. Tursunov, S., Bobomirzayev, P., Sanayev, S., Rizaev, S., & Bobokulov, Z. (2023). The influence of planting times on the formation of the root system of wheat varieties in the conditions of the Zarafshan valley. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 462, p. 02043). EDP Sciences.
11. Narbayeva, M. A., Bobomirzaev, P. X., & Boboqulov, Z. R. (2023). NO 'ХАТНИНГ О 'SIShI, RIVOJLANISHIGA EKISH MUDDATLARI VA SXEMASINING TA'SIRI. *Academic research in educational sciences*, 4(SamTSAU Conference 1), 642-647.
12. Xolmurodova, M. A., & Bobokulov, Z. R. (2023). MOSH POYASINING BO'YINING BALANDLIGIGA EKISH MUDDATI VA USULINING TA'SIRI. *Academic research in educational sciences*, 4(SamTSAU Conference 1), 648-652.
13. Бобокулов, З., & Жозилова, Н. (2022). ТАКРОРИЙ ЭКИЛГАН МАККАЖҮХОРИ ДУРАГАЙЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ФАЗАЛАРИГА ЭКИШ МУДДАТЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 1(2), 32-33.
14. Бобокулов, З. Р., & Бобомурадов, З. С. (2022). НЎХАТ НАВЛАРИ УРУГЛАРИНИНГ ЛАБОРАТОРИЯ УНУВЧАНЛИГИ. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany)*, 880-882.
15. Rayimkulovich, B. Z., & Saifidinovich, B. Z. (2022). NUHAT-SOURCE OF INCOME. *The Journal of Economics, Finance and Innovation*, 1(1), 55-64.
16. Bobokulov, Z. R., Bobomirzayev, P., & Tursunov, N. THE INFLUENCE OF DURATION AND DEPTH ONMUSAEV, K., MAGOMEDOVA, A., & MUSAEVA, Z. COMPARATIVE PRODUCTIVITY OF CHICKPEA VARIETIES IN IRRIGATED CONDITIONS OF PLAIN DAGESTAN.
17. Бобомурадов, З. С., Хамдамов, И. Х., & Савкина, Л. В. (1996). Нут–кормовая культура. *Сельское хозяйство Узбекистана*, 6, 11.
18. Saifidinovich, B. Z. (2023). STUDY OF GROWTH DYNAMICS OF PEA CROP IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE REGIONAL ECONOMY DEPENDING ON SOWING METHODS. *The Journal of Economics, Finance and Innovation*, 1052-1059.
19. Хамдамов, И. Х., Бобомурадов, З. С., Умирзаков, Б. Э., & Усаров, З. (2006). Хашаки нухат намуналарини урганиш натижалари. *СуФориладиган ерларда кишилек хужалик экинлалари селекцияси, уруғчилиги ва етишишии технологиясининг муаммолари (Республика илмий конференцияси)*, 19-20.